



Pittsburgh
Beechwood preK-5

810 Rockland Avenue
Pittsburgh, PA 15216

Telefon: 412-529-7390

Faks: 412-571-7393

Lisa M. Gallagher, mudira

Pittsburgh Beechwood Pre K – 5

Title I

Ota-ona va oila ishtirokiga oid siyosat 2023 – 2024
(tahrirlangan sana 2023/20/9)

Ota-ona va oila ishtiroki o'quvchining maktabda muvaffaqiyatga erishishida muhim omil sanaladi. Pittsburgh Beechwood Pre K-5 maktabi ushbu aloqalarni qabul qilgan va ularga amal qiladigan Ota-ona va oila ishtiroki dasturini qo'llab-quvvatlaydi. Buni bir necha uslubda amalga oshirish mumkin:

Yillik Title 1 uchrashuvi axboroti

- Yillik Title 1 uchrashuvi ota-onalarga Title 1 dasturi haqida axborot berish uchun o'tkaziladi. Bu uchrashuv vaqtida ota-onalar bilan maktab o'quv dasturi, mahalliy va shtat imtihonlari, shtat standartlari hamda bunda ota-onalarning ishtiroki huquqi haqidagi axborot baham ko'riladi. Bu yil ushbu uchrashuv 2023-yil 20-sentabr kuni o'tkazildi.
- Maktab va ota-onalar hamkorlikda Uy-Maktab shartnomasini ishlab chiqadi. Bu yil ushbu uchrashuv 2023-yil 20-sentabr kuni o'tkazildi.

Muntazam Ota-ona va oila ishtiroki uchrashuvlarini o'tkazish

- Beechwood maktabi Ota-onalarning maktab hamjamiyati kengashi (PSCC) har oyda uchrashadi. Title 1 uchrashuvi yilning birinchi PSCC uchrashuvining bir qismi sifatida o'tkaziladi. Ota-onalar bu uchrashuvga Ota-ona va oila ishtiroki siyosatini ko'rib chiqish va yaxshilash uchun taklif etiladi.
- Maktab PSCC a'zolarini har oydagi uchrashuvlar vaqtida Beechwood Title 1 dasturini hamda Schoolwide dasturi rejasini rejalashtirish, ko'rib chiqish va takliflar kiritish uchun taklif etadi.
- Yilning turli davrlarida ota-onalar farzandlarining natijalarini yaxshilashga yordam berish bo'yicha axborot, materiallar va trening taqdim etishga qaratilgan tadbirlarga taklif etiladi.
- Barcha PSCC uchrashuvlari va boshqa maktab funksiyalari har bir ota-ona yoki ishtirok etish istagini bildirgan hamjamiyat a'zosi uchun ochiq.
- Beechwood maktabining FACE muvofiqlashtiruvchisi Capo xonim ota-ona/hamjamiyat/maktab orasidagi bog'lovchi zveno bo'lib xizmat qiladi. U ota-onalar va maktab fakulteti/ma'muriyati bilan uchrashuvlar belgilash va ota-onalar va oilalar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tadbirlarni rejalashtirishda hamkorlik qiladi.
- Uchrashuvlar va tadbirlar haqidagi yuborilgan axborot oilalarning ona tiliga tarjima qilinadi. Ishtirok eta olmaganlar uchun uchrashuv kun tartibi maktab veb-saytiga joylanadi.



Pittsburg davlat maktablari o'z dasturlari, faoliyati yoki ishga olish jarayonida insonlarni irqi, terisining rangi, yoshi, e'tiqodi, dini, jinsi (jumladan, jinsiy mansubligi yoki ifodasi), jinsiy oriyentatsiyasi, nasl-nasabi, milliy kelib chiqishi, oilaviy holati, homiladorligi yoki nogironligiga qarab diskriminatsiya qilmaydi hamda belgilangan yoshlar guruhlariga kirishda bir xil imkoniyatlar bilan ta'aminlaydi.

Ota-ona va oila ishtiroki Title 1 byudjetidagi shaffoflik

- Ota-onalar ishtirokidagi tadbirlar uchun Title 1 mablag'laridan foydalanish hamda tegishli xarajatlar haqida ma'lumotlar ulashildi, jumladan: transport, bola parvarishi yoki ota-onalarga maktab hayotida qatnashish imkonini berish maqsadida uyga tashriflar xarajatlari, aloqador uchrashuv va o'quv seanslari xarajatlarini to'lash uchun ishlatilishi mumkin.

Ota-onalarni akademik standartlar haqida xabardor qilish

- Pittsburgh Beechwood Pre K-5 maktabida quyidagi o'quv dasturi qo'llanadi:
 - Frog Street Pre-K
 - Open Court
 - GoMath
 - Carolina Science
- Maktab ota-onalarga ularning farzandlari maktabda qanday fanlarni o'qishi haqida yaxshiroq tushuncha berish uchun maktab Matematika oqshomi, Savodxonlik oqshomi hamda STEAM oqshomi kabi tadbirlarni o'tkazadi.
- Anjumanlar vaqtida ota-onalarga shtatning akademik mundarija standartlari, o'quvchilarning o'zlashtirish standartlari, mahalliy akademik baholash tizimini tushunishga va farzandlarining o'zlashtirish jarayonini kuzatishga oid ma'lumot taqdim etiladi.

Ota-onalarni akademik o'zlashtirish haqida xabardor qilish

- Ota-onalarga farzandlarining natijalari hqiOda tabellar, oraliq nazorat hisobotlari, baholashlardan olingan ma'lumotlar, okrug va shtat imtihonlari natijalari yordamida o'quvchini kuzatish vositalari orqali xabar beriladi. O'qituvchilardan xatlar, telefon qo'ng'iroqlari, Talking Points va anjumanlar orqali oilalar bilan muntazam aloqada bo'lish talab etiladi.
- Ota-onalar anjumanlari barcha ota-onalarda ishtirok etish imkoniyati bo'lishi uchun yil davomida kunning turli vaqtlarida o'tkaziladi.
- O'qituvchilar ota-onalarga o'quvchilarning akademik o'zlashtirishini yaxshilashda yordam berish uchun hamkorlik qiladi.

Maktabning ota-onalar bilan muloqoti

- Har o'quv yili boshida yoki o'qishga kirganda maktab qoidalarini tushuntiruvchi O'quvchi qo'llanmasi taqdim etiladi.
- Maktab tadbirlarining ro'yxati keltirilgan oylik taqvim barcha oilalarga yuboriladi. Maktab veb-sayti va Facebook sahifasi maktabdagi tadbirlar haqida yangilangan ma'lumotlar taqdim etadi.
- PSCC uchrashuvlari protokollari har bir uchrashuvdan keyin nashr etiladi.

- Ota-onalar bilan barcha muloqot natijalari oilalarning ona tiliga tarjima qilinadi. Oilalarga yana tarjimonlar ham taklif etiladi.
- Ma'muriyat boshqarmasi xodimlari har bir oilani qarshilaydi va ularning maktabda o'zlarini qulay his qilishiga yordam beradi.

Maktab xodimlarining tayyorgarligi

- Beechwood maktabi barcha xodimlarini ota-onalar va oila a'zolari bilan qanday muloqot qilish uchun o'qitadi. Ota-onalar va oila a'zolari xodimlarning treningiga taklif etiladi.